



**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN
FAOLIYATLARDA O'YINNING AHAMIYATI**

*Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi*

1- bosqich talabasi

Yaqubjonova Hayriniso Akromjon qizi

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15226988>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin orqali bolalarni kun tartibini mazmunli o'tkazilishi yoritilgan. O'yinning maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ahamiyatini ko'rib chiqamiz va uni rivojlantirishda qo'llaniladigan asosiy faoliyatlarni tavsiflaymiz.

Kalit so'zlar: O'yin, ro'lli o'yin, syujetli ro'lli o'yin, maktabgacha ta'lim, pedagog, oila.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida katta o'zgarishlar va yangiliklar yuz bermoqda. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv o'quv metodikalar, hamda bolalarning individual ehtiyojlariga moslashgan o'qitish usullari maktabgacha ta'limning sifatini oshirishga qaratilgan. Pedagogik jarayonlarda faollik, ijodkorlik va bolalarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashning ahamiyati ortib bermoqda. Bularning barchasi bolalarni teng imkoniyatlar bilan ta'minlash va ularning psixologik, emotsional va intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, o'yinning maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rnini tobora ahamiyat kasb etmoqda. O'yin nafaqat bolalarning yengillik va zavq olishlari uchun, balki ularning o'zini ifoda etishlari, ijtimoiy ko'nikmalarni o'rganishlari va turli muammolarni hal qilishda mustahkam asos yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin – bu faqat vaqt o'tkazish emas, balki ularning rivojlanishi, bilim olishlari va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. O'yin orqali bolalar nafaqat dunyoqarashlarini kengaytiradilar, balki o'zlarini atrofidagi jamiyatga bog'lashni muammolarni hal qilishni, turli vaziyatlarga moslashishni o'rganadilar. Ushbu maqolada o'yinning maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ahamiyatini ko'rib chiqamiz va uni rivojlantirishda qo'llaniladigan uchta asosiy faoliyatni ko'rsatadi. O'yin va kognitiv rivojlanishning asosiy komponentlari:

O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda muhim yondashuvdir. O'yin quvonch keltiradi va bilimlarni o'rganishga, o'zini va atrofidagi dunyoni bilishga imkon beradi. Maktabgacha ta'lim bolaning o'yin huquqini tan oladi, o'yinning bola uchun muhimligini va uning individual rivojlanishini, ta'lim olishi va farovonligiga ko'maklashishdagi pedagogik imkoniyatlarni tan oladi.

O'yin maktabgacha yoshda yetakchi faoliyatdir. O'yin orqali ta'lim olish bolalarni ta'lim olishi va rivojlanishining yondashuvlaridan biridir. O'yin-bu bolani o'zini va atrofidagi dunyoni o'rganishga undashning tabiiy usuli. o'yin bolaning shaxsiyatini, uning bilish, ijtimoiy- hissiy, ijodiy va jismoniy jihatlarini rivojlantiradi. O'yinda bolalarning tengdoshlari va pedagogi bilan o'zaro munosabati nutq va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, uning motorikasi takomillashib boradi.

O'yinlarning turli shakllari va ta'siri;

Ro'l o'ynash o'yinlari bolalarga ijtimoiy munosabatlarni, o'zaro aloqalarni va jamoada ishlash ko'nikmalarini o'rgatadi. Puzzle va konstruktiv o'yinlar bolalarning diqqatini, tasavvurlarini va xotiralarini kuchaytiradi. O'yin bolalarga o'z hissiyotlarini tushunish, boshqarish va ifodalash imkoniyatini beradi. Bolalar o'yin orqali o'zlarini xushnud qilish, xavotirlarni kamaytirish va ijobiy emotsiyalarni rivojlantiradilar. O'yin boshqa bolalar bilan hamkorlikda ta'lim olish imkoniyatini yaratadi, ularga tavakkal qilish, xato qilish va qiyinchiliklarni yengish imkonini beradi va eng muhimi o'yin ta'lim olishni quvonchli qiladi, bolalarning ijodkorligini va



tasavvurini rivojlantiradi. O'yin har xil bo'lishi mumkin, bolaning yoki bolalar guruhining tashabbusi bilan to'raligicha erkin, pedagogning minimal yoki to'liq ishtirokisiz-pedagog tomonidan tashkil etilgan va unig ko'rsatmalari yordamida amalga oshiriladi. Erkin o'yinning ahamiyatini tushunish va e'tirof etish bilan birga, uyushgan o'yinda pedagogning hal qiluvchi ro'lini ham tan olish kerak. Ta'lim va tarbiya jarayoni o'yin o'ynash imkoniyatini ta'minlashi kerak, rivojlantiruvchi muhit esa o'yin o'ynash imkoniyatiga hissa qo'shishi kerak. O'yin uchun sharoit yaratish, ya'ni bolalarni yetarli vaqt, joy, qo'llab-quvvatlovchi resurslar va o'yinchoqlar bilan ta'minlash juda muhimdir.

Bolalar o'yinini tashkil etishda pedagogning o'rni juda katta masalan; Bolalar o'yinlari uchun sharoit yaratish (vaqt, joy, resurslar). Pedagog o'yin maydonchasini tayyorlaydi, bolaning yoshi, qiziqishlari, qobiliyati va madaniyatiga mos keladigan rag'batlantiruvchi o'yin resurslari bilan ta'minlaydi. Pedagog xavfsizlik talablariga rioya qilgan holda xona ichida va tashqarisida ham o'yin uchun imkoniyatlar yaratad. Pedagog bolalarga o'yin orqali o'rganish va rivojlanishlari uchun imkoniyatlar yaratadi. Pedagog bolalarga o'yin holatiga kirishga yoki o'ynashni davom ettirishga yordam beradigan ko'nikmalarni shakllantiradi. U bolalarning individual xususiyatlari, ularning qiziqishlari, qobiliyatlari va rivojlanish ehtiyojlarini kuzatish asosida o'yinni rejalashtiradi;

Bolalarni o'yinda kuzatish pedagogga bolaning boshqa bolalar bilan qanday o'ynashini, bola o'yinda qanday ko'nikma va malakalarni namoyon etishini, o'yin orqali qanday ko'nikmalarni rivojlantirish kerakligini anglashga yordam beradi. Pedagog o'yinga qo'shib, bolaning ta'lim olishini, uning tasvirlash, asoslashi, tegishli tilni qo'llash qobiliyatini, shuningdek, ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadi.

Pedagog rejalashtirishda bolaning o'z g'oyasi asosida yoki uning tashabbusi bilan o'ynash uchun yetarli vaqt ajratadi, bunda bolalar shoshmasdan va kattalar tomonidan to'xtatilishidan qo'rqmasdan o'ynashlari mumkin. Bolalarga erkin o'yin uchun vaqt va kattalarning faol aralashuvizis o'zlarini va qobiliyatlarini ifoda etish imkoniyati beriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan faoliyatlarida o'yining ahamiyati juda katta. O'yin bolaning kognitiv va emotsional rivojlanishini tezlashtiradi, ularni kreativ fikrlashga, muammoni hal qilishga yordam beradi. Shuningdek, o'yin bolalar orasida ijtimoiy munosabatlar o'rnatishga, jamoada ishlash va qoidalarga amal qilishni o'rganishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, o'yin bolalar uchun xavfsiz va o'zlarini erkin his qilishlari uchun eng samarali muhitni yaratadi. O'yin davomida bolaning o'zi uchun yangi tajribalarga ega bo'lib, o'z salohiyatini yaxshiroq anglash imkoniga ega bo'ladi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim jarayonida o'yinning o'rni beqiyosdir. O'yin metodikasini samarali qo'llash orqali bolalarning barcha jihatlarida rivojlanishiga katta yordam berish mumkin. Shu o'rinda, ta'lim sohasidagi mutaxassislar o'yin faoliyatini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishda o'zgarishlar kiritib, uni nafaqat o'yin, balki ta'limning muhim qismini tashkil qiluvchi metodga aylantirish zarurligini ta'kidlaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Toshpo'latova Sh. Q. Kayumova N.M A'zamova M.N. Maktabgacha ta'lim pedagogika.
2. Qo'ldasheva.R Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda o'yin faoliyatini ahamiyati.
3. Ilk qadam davlat o'quv dasturi 2022.
4. Sodiqova.Sh Maktabgacha pedagogika. O'quv qollanma. "Metodist nashriyoti" 2023.
5. Mo'minova, G. (2023). Maktabgacha talim tashkilotlari tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari. Science and innovation in the education system, 2(2), 122-126.
6. Gulhayo, M. (2023). Technologies for development of general competences of preschool teachers. Science and Innovation, 2(4), 632-634.
7. Iminova D. (2024). Innovativ loyihalar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish motivatsiyasini rivojlantirishning mazmuni. Экономика и социум, (5-2 (120)), 266-274.
8. Iminova, D. N. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati. Science and Education, 2(1), 301-303.